Shuningdek, Borisenko V.V. (2020) o‘zining “Poryadok ucheta i otsenki osnovnyx sredstv v sootvetstvii s MSFO” nomli ilmiy ishida asosiy vositalarning adolatli qiymatini aniqlashda bozor baholashining ahamiyatini asoslab bergan. Unga ko‘ra, MHXS talablari asosida amalga oshirilgan qayta baholash kompaniya kapitalining haqiqatga yaqin tasvirini beradi hamda investorlar uchun tahliliy axborot sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

“Asosiy vositalar hisobini tashkil etishni yaxshilash imkoniyatlari” mavzusidagi ushbu tadqiqotda adabiyotlar va me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni o‘rganish, shuningdek, kuzatish va tahlil usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot jarayonida xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS), milliy buxgalteriya standartlari hamda ularning o‘zaro muvofiqlashtirish mexanizmlari qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, amaldagi korxonalar buxgalteriya tizimida asosiy vositalarni hisobga olish jarayoni, ularning baholanishi, amortizatsiya hisoblash tamoyillari va qayta baholash amaliyoti bo‘yicha amaliy ma‘lumotlar to‘plandi. Olingan ma‘lumotlar asosida mavjud tizimning ustunliklari va kamchiliklari aniqlanib, ularni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Asosiy vositalar qatoriga kiritiladigan obyektlarni MHXS tizimida hisobga olish bir nechta xalqaro standartlar bilan tartibga solinadi:

- MHXS-16 “Asosiy vositalar” (IAS 16 “Property, Plant and Equipment”);
- MHXS-17 “Ijara” (IAS 17 “Leases”);
- MHXS-40 “Investitsion ko‘chmas mulk” (IAS 40 “Investment Property”);
- MHXS-5 “Sotish uchun ushlab turiladigan uzoq muddatli aktivlar” (IAS 5 “Non-current Assets Held for Sale and Discontinued Operations”);
- MHXS-41 “Qishloq xo‘jaligi” (IAS 41 “Agriculture”).

MHXS-16 xalqaro standarti asosiy vositalarni — tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish yoki yetkazib berish, ma‘muriy maqsadlarda yoki boshqa xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlarga ijaraga berish uchun bir necha davr davomida foydalanishga mo‘ljallangan moddiy aktivlar sifatida ko‘rib chiqadi [2].

Ijara operatsiyalarining buxgalteriya hisobi MHXS-17 “Ijara” standarti bilan tartibga solinadi. Ushbu standart shartnomalar asosida aktivlardan foydalanish huquqini beruvchi bitimlarni tartibga soladi. MHXS-17 ga muvofiq, agar mulk lizingga oluvchining balansida hisobga olinadigan bo‘lsa, bunday ijara moliyaviy ijara hisoblanadi.

Biologik aktivlarni hisobga olish esa MHXS-41 “Qishloq xo‘jaligi” standarti bilan tartibga solinadi.

MHXS-16 “Asosiy vositalar” xalqaro standartida asosiy vositalarni baholashning quyidagi turlari belgilangan: boshlang‘ich, balans, tugatish, amortizatsiya qilinadigan, adolatli va qoplanadigan qiymatlar.

- Boshlang‘ich qiymat — aktivni sotib olish yoki qurish vaqtida to‘langan pul mablag‘lari yoki ekvivalentlari miqdori, shuningdek, boshqa to‘lov shakllarining adolatli qiymati.

- Balans qiymati — aktiv tan olingan summadan to‘plangan amortizatsiya va qadrsizlanish yo‘qotishlari chiqarib tashlangandan keyingi qiymat.

- Tugatish qiymati — aktiv foydali xizmat muddati oxirida uni sotishdan olinishi mumkin bo‘lgan, chiqib ketish xarajatlari chiqarib tashlangan holdagi hisoblangan summa.

- Amortizatsiya qilinadigan qiymat — tugatish qiymati chiqarib tashlangan holdagi boshlang‘ich yoki qayta baholangan qiymat.



- Adolatli qiymat — xabardor va mustaqil tomonlar o'rtasida aktivni ayirboshlash mumkin bo'lgan miqdor.
- Qoplanadigan summa — aktivning balans qiymatini tuzatish uchun qo'llaniladigan, foydali xizmat muddati davomida aktivning qiymatini tiklash imkonini beruvchi ko'rsatkichdir.

Qoplanadigan summa ko'rsatkichidan foydalanish aktivning balans qiymatiga tuzatish kiritish bilan bog'liq bo'lib, bu tuzatish obyektidan foydalanish davrida uning funksional foydalilik darajasi pasayishining oldini olishga xizmat qiladi. Shu orqali asosiy vositalarning haqiqiy qiymati va foydalilik darajasi xalqaro talablarga muvofiq aks ettiriladi.

Obyektning qiymati uning foydalanish muddati davomida to'liq qoplanishi kerak. Shu bois aktivni ob'yektiv baholash uning qoplanadigan miqdoriga, ya'ni tashkilot ushbu aktivni sotishdan yoki undan keyingi foydalanish jarayonida olinishi kutilayotgan summaga mos kelishi lozim. Qoplanadigan summani aniqlash uchun ikki turdagi qiymat hisoblab chiqiladi: aktivning sof sotish narxi va undan foydalanish qiymati.

Sof sotish narxi bozor narxidan sotish bilan bog'liq xarajatlarni chiqarib tashlash orqali aniqlanadi. Aktivdan foydalanish qiymati esa aktivdan olinishi kutilayotgan kelajakdagi pul oqimlarining diskontlangan qiymatini anglatadi. Foydalanish qiymatini baholash jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: birinchidan, aktivdan foydalanish davri va uning yakuniy realizatsiyasi bilan bog'liq kelajakdagi pul tushumlari hamda chiqimlarini baholash; ikkinchidan, ushbu kelajakdagi pul oqimlariga mos keluvchi diskont stavkasini qo'llash.

Tayyor asosiy vositani xarid qilish qiymati yetkazib beruvchiga to'langan summa asosida belgilanadi va xarid bilan bog'liq qoplanmaydigan soliqlar, aksizlar, bojxona to'lovlari hamda yig'imlarni o'z ichiga oladi. MHXS-16 xalqaro standartida belgilanishicha, agar shartnoma bo'yicha to'lov muddati odatdagi tijorat amaliyotida qabul qilingan muddatdan uzoq bo'lsa, bunday operatsiya aktivni xarid qilish bilan bir qatorda xaridor faoliyatini moliyalashtirish jarayoni sifatida qaraladi. Shu sababli, aktivning xarid qiymati kelajakdagi to'lovlarning hozirgi (diskontlangan) qiymati bilan belgilanadi. Qarz mablag'lari bo'yicha bozor foiz stavkasi asosida kelajakdagi to'lovlarni diskontlash prinsipi yetkazib beruvchi tomonidan imtiyozli kredit sharoitida qo'llaniladi. Bu yondashuv ijaraga olingan asosiy vositalarni hisobga olish qoidalarining ham asosini tashkil etadi.

Shuningdek, yetkazib berish, ro'yxatdan o'tkazish, dekonservatsiya (ya'ni foydalanish uchun tayyorlash) va ishga tushirish chora-tadbirlari, shuningdek bitimni huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq xarajatlar kapitalashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri xarajatlarga kiradi va ular asosiy vositalar obyektining boshlang'ich qiymatini shakllantiradi.

Misol: Tashkilot bino sotib olishni rejalashtirmoqda. U bir martalik to'lov sharti bilan 40 000 ming so'm to'lash yoki besh yil davomida bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan 50 000 ming so'm to'lash imkoniyatiga ega. Bir martalik to'lovda bino narxi 40 000 ming so'mni tashkil etadi, bo'lib-bo'lib to'lashda esa foizlar hisobiga qo'shimcha 10 000 ming so'm to'lov yuzaga keladi.

Bir martalik to'lovda buxgalteriya hisobida quyidagi yozuv aks ettiriladi:

Debet: Asosiy vositalar — 40 000 ming so'm.

Kredit: Kreditorlik qarzi — 40 000 ming so'm.

Bo'lib-bo'lib to'lash shartida esa quyidagi provodka kiritiladi:

Debet: Foizlarni to'lash xarajatlari — 200 ming so'm.

Kredit: To'lanishi lozim bo'lgan foizlar — 200 ming so'm.

Ba'zi hollarda asosiy vositalar pul bo'lmagan aktivlar evaziga yoki pul va pul bo'lmagan aktivlarning kombinatsiyasi orqali sotib olinadi. Bunday hollarda asosiy vositaning boshlang'ich qiymati adolatli qiymat asosida belgilanadi. Quyidagi ikki holatda bundan istisno qilinadi:

- agar operatsiya tijorat mazmuniga ega bo'lmasa;
- agar berilgan yoki olingan aktivlarning adolatli qiymati ishonchli baholanishi mumkin bo'lmasa.

Xarid qilingan obyekt ushbu tartibda baholanadi, hatto tashkilot u tomonidan berilgan aktivni tan olishni to'xtata olmasa ham. Agar xarid qilingan obyektning adolatli qiymatini aniqlashning imkoni bo'lmasa, uning boshlang'ich qiymati o'tkazilgan aktivning balans qiymati asosida aniqlanadi.

Asosiy vositalar obyekt yoki obyektlar guruhi pul bo'lmagan (nomonetar) aktivlar yoki pul (monetar) aktivlari hamda pul bo'lmagan aktivlar evaziga sotib olinishi mumkin. Bunday asosiy vositalar qiymati adolatli qiymat asosida baholanadi. Agar xarid qilingan asosiy vositalar obyektining adolatli qiymatini ishonchli o'lchash imkoni bo'lmasa, u holda obyekt qiymati ayirboshlangan aktivning balans qiymati bo'yicha hisoblanadi. Bunda naqd to'lovlarning oshishi yoki asosiy vositani topshirayotgan kontragent tomonidan amalga oshirilgan qo'shimcha to'lov miqdori hisobga olinadi.

Misol. Tashkilot 10 000 ming so'm pul mablag'i va 40 000 ming so'mlik avtomobilni balans qiymati 50 000 ming so'm bo'lgan avtobusga almashtiradi. Agar avtobusni adolatli qiymatda baholash imkoniyati mavjud bo'lmasa, u 50 000 ming so'm miqdorida hisobga olinadi. Avtomobil va pul mablag'larini avtobusga almashtirish buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

Debet: Asosiy vositalar (avtobus) — 50 000 ming so'm.

Kredit: Pul mablag'lari — 10 000 ming so'm.



Kredit: Asosiy vositalar (avtomobil) — 40 000 ming so'm.

O'z kuchi bilan yaratilgan asosiy vositalarning qiymati ularni yaratish bilan bog'liq barcha to'g'ridan-to'g'ri xarajatlardan iborat bo'ladi. Xarid narxi xarid qilingan materiallarning qiymati bilan belgilanadi. Bu esa umumiy xarajatlarning nisbatan kichik qismini tashkil etadi. Qurilish xodimlariga haq to'lash, qurilish texnikasi amortizatsiyasi hamda subpudratchilarga to'lovlar kapitallashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri xarajatlarda asosiy vosita qiymatiga kiritiladi.

Asosiy vositalar qiymatiga qurilish jarayoniga bevosita hissa qo'shmaydigan xarajatlarni kiritish mumkin emas. Masalan, brakni qayta tiklash, ishsizlik davrida to'lovlar yoki qurilish bilan bog'liq bo'lmagan ma'muriy xarajatlarda (buxgalterning ish haqi, bosh direktor maoshi va hokazo) asosiy vosita qiymatiga qo'shilmaydi.

Obyekt qiymati tarkibiga qurilish maydonchasini tayyorlash, tayyor obyektni sozlash, qabul qilish va sinovdan o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarda ham kiradi. Biroq obyekt texnik shartlarga muvofiq ishlash holatiga yetkazilib, foydalanishga topshirilgandan keyin yuzaga keladigan xarajatlarda (masalan, to'liq yuklanmaganligi sababli saqlash xarajatlari) moliyaviy natijalarga bog'lanadi.

Shuningdek, obyektni demontaj qilish, utilizatsiya qilish va atrof-muhitni tiklash bilan bog'liq xarajatlarda ham hisob-kitob asosida baholanadi va ular asosiy vosita qiymatining uchinchi tarkibiy qismi sifatida tan olinadi. Asosiy vositani sotib olish yoki balansda saqlash natijasida bunday xarajatlarni amalga oshirish majburiyati paydo bo'ladi. Masalan, neft qudug'ini qurish tashkilotga uni demontaj qilish va yerlarni rekultivatsiya qilish bo'yicha qonuniy majburiyatlar yuklaydi. Qoidaga ko'ra, aktiv sotilganda demontaj va atrof-muhitni tiklash majburiyatlari yangi egasiga o'tadi.

MHXS-16 "Asosiy vositalar" standartining 31-bandiga muvofiq, tashkilot aktivlarning adolatli qiymatini muntazam qayta baholashni ta'minlaydigan qayta baholangan qiymat modelini qo'llashi mumkin. Bunda aktivning adolatli qiymati to'plangan amortizatsiya va qadrsizlanish yo'qotishlari chiqarib tashlangan holda hisobga olinadi. Bozorda o'xshash obyektlar qiymatining o'zgarishiga qarab qayta baholash muntazam ravishda amalga oshirilishi zarur. Ushbu yondashuv aktivning sof balans qiymatini uning hozirgi adolatli qiymatiga maksimal darajada yaqinlashtirishni ta'minlaydi [2].

Qayta baholashlar oralig'ida amortizatsiya hisoblash avvalgi modelga muvofiq davom ettiriladi. Asosiy vositalarni qayta baholashda to'plangan amortizatsiya ikki xil usul bilan hisobga olinadi:

1. Amortizatsiya aktivning balans qiymati o'zgarishiga mutanosib tarzda qayta baholanadi, natijada aktivning yangi balans qiymati uning qayta baholangan qiymatiga teng bo'ladi. Ushbu usul, odatda, indekslash orqali tiklash qiymatini qayta baholashda qo'llaniladi.

2. Amortizatsiya balans qiymatidan chiqarib tashlanadi va sof qiymat aktivning qayta baholangan summasigacha qayta hisoblanadi. Bu usul, asosan, binolar uchun qo'llaniladi (MHXS-16 "Asosiy vositalar"ning 35-bandi) [2].

Misol. Sex binosining boshlang'ich qiymati 50 000 ming so'mni tashkil etadi. Hisoblangan amortizatsiya miqdori 20 000 ming so'm, sof balans qiymati esa 30 000 ming so'mni tashkil etadi. Qayta baholash natijasida sex binosining sof balans qiymati 60 000 ming so'mga yetdi. Bu o'zgarish asosiy vosita obyektining adolatli qiymati oshganini, shuningdek korxona aktivlari qiymatini xalqaro talablarga muvofiq yangilashning samarali amalga oshirilganini ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval. Sex binosini qayta baholash natijalarining ikki usulda aks ettirilishi

Ko'rsatkichlar	Birinchi usul	Ikkinchi usul
Qayta baholash natijasida balans qiymati	100 000	60 000
Amortizatsiya	40 000	0
Sof balans qiymati	60 000	60 000

Qayta baholashning birinchi usuli buxgalteriya hisobida quyidagi provodkalar bilan aks ettiriladi:

Debet: Asosiy vositalar — 50 000 ming so'm.

Kredit: Amortizatsiya — 20 000 ming so'm.

Kredit: Qayta baholash zaxirasi — 30 000 ming so'm.

Ikkinchi usul — sex binosini qayta baholashgacha hisoblangan amortizatsiyani chiqarib tashlagan holda qayta baholash bo'lib, bu quyidagi yozuv bilan ifodalanadi:

Debet: Asosiy vositalar — 10 000 ming so'm.

Debet: Amortizatsiya — 20 000 ming so'm.

Kredit: Qayta baholash zaxirasi — 30 000 ming so'm.



Qayta baholangan qiymatni hisobga olish modeli asosiy vositalarning butun sinfi uchun, ya'ni xususiyatlari va maqsadi bo'yicha o'zaro o'xshash bo'lgan barcha obyektlarga izchil qo'llanilishi kerak. Qayta baholash sinfdagi barcha obyektlar uchun bir vaqtning o'zida amalga oshirilishi lozim.

Misol. Fabrika bir nechta sexlarda iborat. Rahbariyat sexlarda mavjud asosiy vositalarni har to'rt yilda qayta baholashga qaror qilgan. Bunda qayta baholash ikki xil tartibda o'tkazilishi mumkin:

- barcha sexlarda qayta baholashni bir vaqtning o'zida amalga oshirish;
- yoki har yili aktivlar qiymatining to'rtidan bir qismini qayta baholash.

Agar asosiy vositalarning ma'lum bir sinfi bo'yicha adolatli qiymatning o'zgarish sur'ati yuqori bo'lmasa, qayta baholashni 3–5 yilda bir marotaba o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Bu talab MHXS-16 "Asosiy vositalar" xalqaro standartining 34-paragrafida belgilangan. Shu bilan birga, MHXS-16 ning 37-bandida asosiy vositalarning quyidagi yiriklashtirilgan sinflari keltirilgan: yer, binolar va ular ostidagi uchastkalar, asbob-uskunalar, kemalar, aviapark, avtotransport vositalari, mebel va ofis jihozlari [2].

Amaliyotda quyidagi savol paydo bo'ladi: asosiy vositalar sinfi tushunchasiga javob beradigan eng kichik obyektlar guruhini qanday aniqlash mumkin? Bu savolga aniq javob berish murakkab, biroq metodologik yondashuv shuni ko'rsatadiki, qayta baholanadigan obyektlar sonini kamaytirish maqsadi ularni sinflarga ajratish mezonini bo'la olmaydi.

Sinflarni ajratishda moliyaviy hisobot foydalanuvchisi nuqtai nazaridan yondashish zarur, chunki hisobot izohlarida asosiy vositalar haqidagi ma'lumotlar aynan sinflar kesimida keltiriladi. Shu bilan birga, asosiy vositalarni detallashtirish darajasi balans moddalarini tafsilotlariga zid kelmasligi kerak.

Shuni ham ta'kidlash joizki, asosiy vositalarning ikki sinfi o'rtasidagi farqlar ularning o'xshashligidan ko'ra ko'proq bo'lishi lozim. Bunda obyektlarning yoshi, ishlab chiqarilgan davlati, konstruktiv xususiyatlari yoki geografik joylashuvi kabi belgilar sinf mezonini sifatida inobatga olinmaydi.

Masalan, keng "yer" toifasi doirasida qishloq xo'jaligi yerlari va ishlab chiqarish qurilish maydonlari haqida alohida ma'lumot keltirish o'rinli bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, asosiy vositalarni haddan tashqari ko'p kichik guruhlariga ajratish moliyaviy hisobotda ma'lumotlarni taqdim etish samaradorligini kamaytiradi.

Agar qayta baholash natijasida aktivning balans qiymati ortsa, ushbu o'sish "Qayta baholash zaxirasi" moddasi tarkibida kapital hisobiga to'g'ridan-to'g'ri kiritiladi.

Misol. Balans qiymati 30 000 ming so'm bo'lgan chilangar uskunasi qayta baholandi. Uning adolatli qiymati 34 000 ming so'mni tashkil etdi. 4 000 ming so'm miqdoridagi o'sish tashkilot buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

Debet: Asosiy vositalar — 4 000 ming so'm.

Kredit: Qayta baholash zaxirasi — 4 000 ming so'm.

Agar aktivning balans qiymati qayta baholash natijasida pasaysa, ushbu pasayish avvalo qayta baholash bo'yicha mavjud zaxiraga ta'sir qiladi, so'ngra foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda tan olinadi.

Misol. Qandolat fabrikasi binosining balans qiymati 20 000 ming so'mni tashkil etadi. Qayta baholash natijasida uning qiymati 24 000 ming so'mgacha ko'tarildi. 4 000 ming so'mlik o'sish kapital schetlari kreditiga qayta baholash zaxirasi sifatida kiritiladi.

Birinchi qayta baholash quyidagicha aks ettiriladi:

Debet: Asosiy vositalar — 4 000 ming so'm.

Kredit: Qayta baholash zaxirasi — 4 000 ming so'm.

Keyingi qayta baholashda qandolat fabrikasi binosi 19 000 ming so'mga baholandi. 4 000 ming so'mlik kamayish ilgari shakllantirilgan qayta baholash zaxirasi hisobidan qoplanadi. Qolgan 1 000 ming so'mlik qisqartirish esa foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda xarajat sifatida tan olinadi. Ushbu operatsiya buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

Debet: Qayta baholash zaxirasi — 4 000 ming so'm.

Debet: Qayta baholash xarajatlari — 1 000 ming so'm.

Kredit: Asosiy vositalar — 5 000 ming so'm.

Qayta baholangan qiymat bo'yicha hisob modelini qo'llash faqat asosiy vositalarning butun sinfi uchun o'rinli bo'ladi. Buning sababi shundaki, butun guruh bo'yicha qayta baholash natijalarini aniqlashda bitta aktiv qiymatining pasayishi boshqa aktiv qiymatining o'sishi bilan muvozanatlashishi mumkin.

Agar qiymatning o'sishi kapital tarkibidagi qayta baholash zaxirasi sifatida aks ettirilsa, narxning tushirilishi (ya'ni qayta baholashdan zarar) foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda qayd etilishi talab etiladi, ilgari yaratilgan qayta baholash zaxirasiga mos qismi bundan mustasno.

Shuningdek, har bir qayta baholangan obyekt bo'yicha oldingi qayta baholash ma'lumotlarini saqlab qolish zarur, chunki ilgari tan olingan zararni keyinchalik qiymatning oshishi bilan qoplash mumkin va bu o'zgarish foyda va zararlar hisobotida inobatga olinishi lozim.



Misol. Uskunaning balans qiymati 40 000 ming so'mni tashkil etadi. Foydalanishning birinchi yilida uning qiymati 35 000 ming so'mgacha pasaydi. 5 000 ming so'mlik kamayish daromadlar to'g'risidagi hisobotda xarajat sifatida tan olinadi.

Birinchi yil yakunida buxgalteriya yozuvi quyidagicha amalga oshiriladi:

Debet: Qayta baholash xarajatlari — 5 000 ming so'm.

Kredit: Qayta baholashga sarflangan xarajatlari — 5 000 ming so'm.

Ikkinchi yilda qayta baholash natijasida uskunaning qiymati 41 000 ming so'mni tashkil etdi. Bunda 5 000 ming so'mlik o'sish foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda daromad sifatida tan olinadi. Qolgan 1 000 ming so'mlik o'sish esa kapital tarkibida "Qayta baholash zaxirasi" sifatida qayd etiladi, bu esa moliyaviy barqarorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ikkinchi yilda uskunalarni qayta baholash quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari orqali aks ettiriladi:

Debet: Qayta baholashga sarflangan xarajatlari — 5 000 ming so'm.

Kredit: Qayta baholash xarajatlari — 5 000 ming so'm.

Debet: Asosiy vositalar — 1 000 ming so'm.

Kredit: Qayta baholash zaxirasi — 1 000 ming so'm.

Asosiy vositalarni qayta baholangan qiymat bo'yicha hisobga olishning eng muhim afzalligi shundaki, bu yondashuv balansda asosiy vositalarning joriy bozor qiymatini aks ettiradi. Bunday yondashuv investorlar, kreditorlar va tahlilchilar uchun korxonaning real aktivlar qiymatini baholashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot natijalari asosiy vositalar qiymatini qoplash jarayoniga bevosita bog'liq bo'ladi.

Qayta baholash jarayoni amortizatsiya to'lovlarining ko'payishiga olib kelishi mumkin. Bu esa boshqa barcha sharoitlar teng bo'lgan holatda foydaning qisqarishiga olib keladi, biroq bu holat moliyaviy natijalarning yanada aniq va shaffof aks ettirilishini ta'minlaydi. Shuningdek, bozorda asosiy vositalarning bozor qiymati pasaygan davrlarda narxni mos ravishda qayta baholash zarurati ham yuzaga keladi. Shu bilan birga, qayta baholash bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlari ham moliyaviy hisob-kitoblarda e'tiborga olinishi lozim [3].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalqaro standartlarga integratsiyalashish va buxgalteriya ma'lumotlarining aniqligini ta'minlash maqsadida hisob obyekti sifatida asosiy vositalar hisobini to'g'ri tashkil etish va yuritish nihoyatda muhimdir. Asosiy vositalar hisobini tashkil etish va yuritish jarayonida korxonalar oldiga quyidagi asosiy vazifalar qo'yilishi zarur: asosiy vositalarni joriy hisobda hamda buxgalteriya balansida amaldagi standartlar va me'yoriy hujjatlar asosida to'g'ri va o'z vaqtida baholash; asosiy vositalarning harakati bilan bog'liq operatsiyalarni tegishli hujjatlarda to'g'ri va o'z vaqtida rasmiylashtirish; asosiy vositalarning saqlanishi va ularning mavjudligini foydalanuv joyi bo'yicha nazorat qilish, shuningdek, ular uchun mas'ul shaxslar faoliyatini huquqiy asosda tartibga solish; asosiy vositalarning eskirishini to'g'ri hisoblab chiqish va bu jarayonni o'z vaqtida buxgalteriya hisobida aks ettirish; foydalanish uchun yaroqsiz yoki ortiqcha asosiy vositalarni o'z vaqtida hisobdan chiqarish; hisobdan chiqarilgan asosiy vositalar bo'yicha moliyaviy natijalarni to'g'ri aniqlash. Asosiy vositalar korxona balansiga kapital qo'yilmalar yakunlangach, tiklangan obyektni qabul qilib topshirish, oldi-sotdi shartnomasi asosida obyektni sotib olish, ustav kapitaliga ta'sischi ulushi sifatida kiritish, tekin ya'ni hadya shartnomasi orqali qabul qilish, ayirboshlash yoki tovar-moddiy zaxiralar tarkibidan o'tkazish, uzoq muddatli ijara (lizing) shartnomasi asosida olish, qiymati belgilangan asosiy vositalarga kapital qo'yilmalar kiritish, shuningdek ortiqcha, ilgari hisobga olinmagan asosiy vositalarni aniqlash natijasida kiritilishi mumkin. Ushbu jarayonlarni to'g'ri tashkil etish buxgalteriya hisobining aniqligi va moliyaviy hisobot ma'lumotlarining ishonchliligini ta'minlaydi hamda korxona faoliyati bo'yicha shakllantirilgan hisobotlarning xalqaro standartlar talablariga muvofiq bo'lishini, iqtisodiy tahlil va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun mustahkam asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Buxgalteriya hisobi to'g'risida", 13.04.2016-yil. — <https://lex.uz/uz/docs/2931253>
2. IAS 16 – Property, Plant and Equipment. – IFRS Foundation, 2022. — <https://www.ifrs.org>
3. Borisenko, V.V. (2020). Poryadok ucheta i otsenki osnovnyx sredstv v sootvetstvii s MSFO. – GAAP.ru.
4. Toshnazarov S.N. (2016). Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobot: muammo va echimlar. – Toshkent: Navro'z nashriyoti.
5. Avlokulov A.Z. (2020). Moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishda hisob siyosatining roli. – "Iqtisodiyot va ta'lim" jurnali, №3, 45–51-betlar.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>